

Ma`murov Sanjarbek Xoziakbar o`g`li

Namangan Davlat Universiteti Pediatriya ishi yo`nalishi 3-kurs talabasi

e-mail:@orlsanjar@gmail.com

Tel nomer:+998 90 697 02 03

KEKIRDAK VA HIQILDOQ KASALLIKLARI. OVOZ BUZILISHLARINING SABABLARI VA DAVOLASH USULLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kekirdak va hiqildoq kasalliklari haqida ma'lumot beriladi. Hozirgi kunda bu kasalliklar dolzarbli bilan ajralib turadi. Chunki bu kasalliklar havo ifloslanishi, zararli moddalar natijasida kelib chiqadi.

Kalit so`zlar: traxeit, kekirdak stenozi(torayishi), kekirdakning o'smalari. Laringit, hiqildoq stenozlari, laringeal papillomatoz, hiqildoqning poliplari va tugunlari.

Аннотация: В данной статье представлена информация о заболеваниях трахеи и гортани. В настоящее время эти заболевания выделяются своей актуальностью. Потому что эти заболевания возникают в результате загрязнения воздуха и воздействия вредных веществ.

Ключевые слова: Трахеит, стеноз трахеи, ларингит, ларингеальный папилломатоз, опухоли гортани, полипы и узелки гортани.

Abstract: This article provides information about tracheal and laryngeal diseases. Currently, these diseases stand out due to their relevance. Because these diseases arise due to air pollution and harmful substances.

Key words: Tracheitis, tracheal stenosis and tracheal tumors. Larygitis, laryngeal stenosis, laryngeal papillomatosis, laryngeal polyps and nodules.

Hozirgi kunda kekirdak (traxeya) va hiqildoq kasalliklari ham xalqimiz orasida uchrab turadi. Kekirdak bu odam va umurtqali hayvonlar nafas yo'llarining ya`ni hiqildoqning keyingi qismi. Odamda uning uzunligi 9-12 sm, diametri 1.5-2 sm. Kekirdakning shilliq qavatida bezchalar ko`p. Kekirdak ichki tomondan shilliq parda bilan, parda esa tukli epitely bilan qoplangan. Hiqildoq va kekirdak kasalligi tu fayli o`pkaga havo o'tmay qolganda kekirdakni ochib naycha qo'yiladi. Bu traxeotomiya deb ataladi. [M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev. "Otorinolaringologiya"]. Kekirdakning yallig'lanishi traxeit deb ataladi. Quyida traxeya kasalliklari bilan tanishib chiqamiz:

Traxeit-traxeya shilliq qavatining yallig'lanishi hisoblanadi. Odatda virusli yoki bakterial infeksiya natijasida rivojlanadi. Ko`pincha yuqori nafas yo'llari infeksiyalari (masalan, gripp, bronxit) bilan bog`liq holda rivojlanadi. Traxeit yallig'lanish jarayonining turi va sababiga ko`ra o'tkir va surunkali bo`lishi mumkin. [M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev."Otorinolaringologiya"]. O'tkir traxeit –qisqa muddatli, odatda virusli yoki bakterial infeksiya tufayli kelib chiqadi. Surunkali traxeit-uzoq davom etadigan yoki qayta-qayta takrorlanadigan kasallik bo`lib, ko`pincha traxeya shilliq qavatining doimiy zararlanishidan kelib chiqadi. Klinik belgilari: quruq yo'tal, nafas olishda og'riq, xirillash, tana xaroratining ko`tarilishi, umumiy zaiflik. [M. Q. Usmonov, Sh.M. Shamsiev."Otorinolaringologiya"].

Traxeya stenozi-bu traxeya yo'lining torayishi bo'lib, nafas olishni qiyinlashtartiradigan va ba'zan hayotga xavf soladigan patologik holat. Stenoz traxeya bo'y lab har qanday qismida paydo bo'lishi mumkin.

Traxeya o'smalari-bu kekirdak shilliq qavatida yoki chuqur qatlamlarida o'suvchi patologik yangi to'qimalar. Nafas yo'llarining muhim qismi bo'lgan traxeyada hosil bo'ladigan yaxshi va yomon sifatli o'smalar hisoblanadi. Ular nafas olish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Klinik belgilariga quyidagilar kiradi:

- 1.Nafas olishda qiyinchilik.
2. Surunkali yo'tal.
3. Ovozni bo'g'ilishi yoki o'zgarishi.
4. Qon aralash balg'am.
5. Ko'krakda og'riq.

Endi esa hiqildoqning anatomofiziologik xususiyatlari hamda hiqildoqda kechadigan kasalliklar haqida gapirib o'tamiz.

Hiqildoq (Larynx) – nafas yo'llarining yuqori qismida joylashgan, ovoz hosil qilish va nafas olishda muhim rol o'ynaydigan a'zo hisoblanadi. U halqum va traxeya o'rtasida joylashgan bo'lib, asosiy vazifasi ovoz hosil qilish (fonatsiya), nafas yo'llarini himoya qilish va havo o'tkazishdir. Hiqildoqning asosiy vazifalari:

1. Nafas olish – havo o'tish yo'lini ta'minlash.
2. Fonatsiya (ovozi chiqarish) – ovoz boyamlari orqali ovoz hosil qiladi.
3. Himoya funksiyasi- epiglottis tufayli ovqat yoki suyuqlikning nafas yo'liga tushishidan himoya qiladi.

Hiqildoq kasalliklari:

1). Laringit- ovoz boyamlari yallig'lanishi, ovoz yo'qolishi yoki bo'g'ilishi bilan kechadi. Bu kasallik ko'pincha ovoz boyamlari ta'sirlanganida yuzaga keladi va ovoz yo'qolishi yoki bo'g'ilishi bilan kechadi. Otkir hamda surunkali turlari farqlanadi. [M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev."Otorinolaringologiya"].

Klinik belgilari:

- 1.Ovozning bo'g'ilishi yoki yo'qolishi.
- 2.Bo'g'izda quruqlik yoki tirkash.
- 3.Yo'tal, ko'pincha quruq.

4.Yutish paytida og`riq.

5.Tana haroratining ko`tarilishi.

6.Nafas olishda qiyinchilik (ko`pincha bolalarda).

2). Hiqildoq stenozlari- hiqildoqning torayishi bilan harakterlanadigan patologik holat. Bu nafas olish yo'llari orqali havoning o'tishini qiyinlashtiradi va bemorda nafas yetishmovchiligiga sabab bo'ladi. Bu holatda nafas olish qiyinlashadi, ovoz o'zgarishi hamda yo'tal kuzatiladi. [M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev."Otorinolaringologiya"].



3).Laringeal papillomatoz- bu hiqildoq shilliq qavatida papilloma deb ataluvchi o'simtalar paydo bo'lishi bilan harakterlanadigan surunkali infeksion kasallik. Ushbu o'simtalar ko`pincha ovoz boyamlarida rivojlanadi va nafas olish hamda ovoz chiqarishni qiyinlashtiradi. Kasallikning asosiy qo`zg'atuvchisi- inson papilloma viruslari hisoblanadi. Bolalar hamda kattalar papillomatoziga bo`linadi. Bu kasallikda ovoz o'zgaradi ya`ni ovoz bo`g'iq, qo`pol yoki xirillagan bo'ladi. [M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev."Otorinolaringologiya"].

4). Hiqildoq poliplari- bu hiqildoq shilliq qavatida hosil bo`ladigan, yaxshi xulqli o'simtalar bo`lib, ko`pincha ovoz boyamlarida joylashadi. Ular asosa, ovozning ortiqcha zo`riqishi yoki surunkali yallig`lanish natijasida yuzaga keladi. Bu kasalikda ovozning tez charchashi, uzoq gaplashganda yoki qo'shiq kuylaganda ovoz charchaydi. Hiqildoq poliplari yaxshi xulqli bo`lib, o'z vaqtida aniqlansa hamda davolansa to`liq tuzalishi mumkin.

Ovoz buzilishlari(disfoniya)- ovozning sifat, balandlik yoki tovush tembrining o'zgarishi bilan harakterlanadi. Bu holat shaxsning gapirish yoki qo'shiq kuylash imkoniyatini cheklashi mumkin. Ovoz buzilishi bo`lsa, bemor otorinolaringolog va foniatr tomonidan ovoz funksiyasini o`rganish bilan maslahatlashishi kerak. Shuningdek, nutq terapevti tomonidan tekshirilishi kerak. Ovoz buzilishlarini bartaraf etishda tibbiy choralar (dori yoki jarrohhlik davolash, FTI, psixiterapiya) va nutq terapiyasi (ovozi rejimi, nafas olish va articular gimnastika, fonopedik mashqlar va boshqalar) kiradi. [M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev."Otorinolaringologiya"].

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. V.V.Shelenkova, I.B.Korelina. Bolalar o'smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi.(V.V. Shelenkova, I.B. Korelina. Speech and voice disorders in children, adolescents and adults).
- 2.E.S.Almazova. Logopedik ish bolalarda ovozni tiklash. 2005-yil. (E.S. Almazova. Logopedic work on voice restoration in children. 2005)
- 3.V.V.Shelenkova, I.B.Korelina. Bolalar o'smirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi 2005-yil (V. V. Shelenkova. I. B. Korelina. Speech and voice disorders in children, adolescents and adults 2005)
- 4.M.Y.Ayupova.Logopediya Toshkent 2007-yil (M.Y. Ayupova. Logopedia Tashkent 2007)
- 5.K.P.Bekker,M.Sovak.Logopediya.1981-yil(K.P. Becker, M. Sovak Logipedia 1981)
6. M. Q. Usmonov, Sh. M. Shamsiev."Otorinolaringologiya" (O'quv qo'llanma). — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020.
7. Cummings Otolaryngology: Head and Neck Surgery.Editors: Paul W. Flint, Bruce H. Haughey, Valerie J. Lund. — 7th Edition, Elsevier, 2021.
8. P. G. Jovanovic."Laringologiya va hiqildoq kasalliklari." — Moskva: Medicina, 2018.
9. L. A. Nesterov."Hiqildoq va ovoz apparati kasalliklari." — Moskva: GEOTAR-Media, 2019.
10. "Merck Manual of Diagnosis and Therapy."Ovoz buzilishlari va hiqildoq patologiyalari bo'yicha batafsil ma'lumot.